

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR

Onlayn ilmiy jurnal



Jild: 04 Nashr: 12 (2025)

www.mudarrisziyo.uz

ISSN: 2992-8931



O‘ZBEKISTONDA AHOLIGA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA KORRUPTSIYA OMILLARINI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI

Mamedov Tulqin

Davlat belgisi” MCHJ “Komplayens-nazorat bo’limi” bosh mutaxassisi

Annotatsiya: O‘zbekistonda aholiga xizmatlarni ko‘rsatishda korrupsiya omillarini bartaraf etish chora-tadbirlari. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishning ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, davlat xizmatlari, komplayens-nazorat, Xalq qabulxona, Bosh Vazir qabulxonasi, Prezident portal, ishonch telefonlari

Kirish. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. 2017-2018, 2019-2020 va 2021-2022 yillarga mo‘ljallangan «Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari, yangi tahrirdagi «Davlat xaridlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

“Merriam-Webster” online lug‘atida korrupsiyaga to‘rt rakursda ta‘rif keltirilgan. Ular quyidagilardan iboratdir. 1) qudratli (ayniqsa hukumat amaldorlari va politsiya zobitlar) kishilar tomonidan vijdotsizlarcha va noqonuniy xulq-atvor; 2) noto‘g‘ri va noqonuniy vositalar yordamida kishini ma‘lum bir faolyatga undash (misol uchun poraxorlik); 3) asliyatdan, soflik va to‘g‘rilikdan og‘ish (matning buzilishi); 4) cherish (masalan, o‘likning chirishi) [1].

2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuniga asosan o‘tgan davr mobaynida har ikki yilga mo‘ljallangan 3 ta davlat dasturi (2017, 2019 va 2021 yillar) qabul qilindi. Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha yangi qo‘mitalar, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<https://anticorruption.uz/>) hamda O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi. Bu borada amalga oshirilgan quyidagi muhim islohotlarni sanab o‘tish mumkin:

- davlat fuqarolik xizmati tubdan takomillashtirilmoqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi;
- O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi huzurida Jamoatchilik kengashi tashkil etildi;
- davlat xaridlari tizimi shaffofligini ta‘minlashga qaratilgan onlayn platformalar (d.xarid.uz) shga tushirildi; byudjet xarajatlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga qaratilgan «Openbudget» – «Ochiq byudjet» portali ishga tushirildi;
- ochiq ma‘lumotlar portali (data.gov.uz), Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) va boshqa platformalar ishga tushirilib, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati jamoatchilik uchun yanada ochiq va shaffof bo‘lishi ta‘minlanmoqda;

- 2021 yil 1 oktyabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi «komplayens-nazorat» tizimi joriy etildi;
- Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi isloh qilindi. Jami 207 ta davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi, ulardagi xizmat turlari 162 taga yetkazildi; - litsenziyalash va ruxsat berish tizimi doimiy isloh qilinib, amaldagi litsenziyalar va ruxsat berish hujjatlari 30 foizgacha qisqartirildi; - korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan xalq ta'limi, oliy ta'lim, kadastr, sog'liqni saqlash, qurilish, bank va davlat xaridlari kabi sohalarda «Korrupsiyasiz soha» loyihasining amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi; - jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun «Xalq qabulxona»lari, Bosh Vazir qabulxonasi, Prezident portali hamda davlat organlari va tashkilotlarning «ishonch telefon»lari joriy qilindi; - davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalari maqbullashtirilib, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tizimi takomillashtirildi. «E-Anticor.uz» elektron platformasida korrupsiyaviy xavflar baholanib, «Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri» yuritilmoqda. Reyestrda korrupsion xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati aks ettirilib, jamoatchilik uchun ochiqligi ta'minlanadi.

Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish — davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish orqali inson omilini kamaytirish;
2. Shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash — davlat idoralarining faoliyati, qaror qabul qilish jarayonlari hamda moliyaviy hisobotlarning jamoatchilikka ochiqligini kuchaytirish;
3. Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish — korrupsiyaga qarshi qonunchilikni mustahkamlash, jazoni muqarrarligini ta'minlash;
4. Kadrlar malakasini oshirish va axloqiy mas'uliyatni kuchaytirish - davlat xizmatchilari orasida halollik, adolat va xizmat madaniyatini rivojlantirish.
5. Jamoatchilik nazorati - fuqarolik jamiyati institutlari, OAV va nodavlat tashkilotlarning faol ishtirokini ta'minlash.

Natijada, O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi mavqei quyidagicha ijobiy tomonga o'zgarishiga erishildi: Transparency International 12 yil davomida barqaror o'sishiga erishilgan 2013 yilda 17 ball bilan 146 o'rindan 2024 yilda 32 ball bilan 121 o'ringa ko'tarilgan [1].

Trace Matrix indeksi bo'yicha O'zbekistonning ko'rsatkichi 2017 yilda 66 ball bilan (1 balldan 100 ballgacha baholanadi, 1 ball – eng ijobiy) 189-o'rindan 2024 yilda 57 ball bilan 134-o'ringacha ko'tarildi [2].

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi huzurida yuqorida ko'rsatilgan ijobiy o'zgarishlarni yanada yaxshilash jarayonida samarali ishtirok etish maqsadida Jamoatchilik kengashi tuzildi va uning zimmasiga quyidagi yo'nalishlarda vazifalar yuklatildi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar tayyorlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralar, tadqiqotlar, monitoring o'tkazish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida keng hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va tashkil etish;
- korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini monitoring qilish, uning faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashish va boshqalar.

2022 yil 8 avgustda qabul qilingan «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonunning 50 moddasida ham korruptsiya bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar davlat xizmatiga qabul qilinmasligi belgilangan [3].

Xodimlarga «Halolik vaktsinasini» singdirish bosqichlari: -ibrat, namuna; kitobxonlik; -rag'batlantirish; -jamoaviy muhokama; -ekstropolyatsiya; -tinglash va eshitish; -deduktiv va abduktiv tahlil; -o'zini chetdan baholay olish; -sinchkovlik, qarash va ko'rish;

«Agar xohlasangiz korruptsiyani yenging ammo do'stlar va oilani qamoqqa yuborishga tayyor bo'ling» (Li Kuan Yu) bu bilan muallif nima demoqchiligi ko'pchilik tushib ulgurdi menimcha korruptsiyan qanday jirkanchligini yana bir isboti va turli yo'llar bilan bizni bo'g'ma ilondek bo'g'ayotganligini his qilishimiz mumkin. Ma'lumki, ushbu sohadagi xalqaro standartlar korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarga qaratilgan: Davlat xizmatchilari uchun qo'shimcha cheklovlarni joriy etish; Xususiy sektorda shaffoflikni oshirish, masalan, qimmatli qog'ozlarning haqiqiy egalarini/benefitsiarlarini aniqlash; Korruptsiyaga qarshi kurashda moliyaviy nazorat bo'linmalarining rolini kuchaytirish; Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun korporativ va jismoniy shaxslarning javobgarligini kuchaytirish; Kollektiv choralar ko'rish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari Milliy bazasiga muvofiq, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa muhim qonun hujjatlariga quyidagilar kiradi: Konstitutsiya (2023-yil may oyida kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan); Jinoyat kodeksi; «Davlat xizmati to'g'risida»gi qonun; «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonun; «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi qonun; Yuridik yordam to'g'risidagi axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun; Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonun; Elektron hukumat to'g'risidagi qonun; «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonun; Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmga va ommaviy axborot vositalarining tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun (oxirgi o'zgartirishlar 2019-yil yanvarda kiritilgan) — jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini taqdim etadi.

Xulosa. Ayrim sohalarda korruptsiya holatlari aholiga xizmatlar ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu chora-tadbirlar aholiga xizmat ko'rsatishda shaffoflikni ta'minlab, korruptsiya xavfini kamaytiradi hamda davlat boshqaruvi tizimiga ishonchni oshiradi. Natijada, O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligiga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/corruption>. Date of access 13.11.2025
2. <https://www.transparency.org/en/cpi/2024/index/uzb> Corruption Perceptions Index. Date of access 06.11.2025

3. <https://matrixbrowser.traceinternational.org/> 2024 Bribery Risk Matrix Date of access 06.11.2025
4. <https://lex.uz/uz/docs/6145972?ONDATE=21.09.2024> Davlat fuqarolik xizmati togrisida O'zbekiston Respublikasi qonuni.
5. <https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaning-oldini-olish-va-unga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-amalga-oshirish>
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
7. Sobirovich, T. B. (2020). The strategy of renewal of the national spirituality of Uzbekistan. International Journal of applied research, 6(5), 147-151.